O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI

«MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANRSHNI TA’MINLASHDA HUDUDLAR IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

(2026-yil 2-3-iyun)



Namangan - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI

«MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA HUDUDLAR IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

(2026-yil 2-3-iyun)

Namangan - 2026

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Baymirzayev D.N., i.f.f.d. (PhD), dotsent
Talapova N.B., i.f.f.d. (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Urinov B.J p.f.f.d., dotsent; Urunov N.M. i.f.n., dotsent; Narzullayev N.S. i.f.n., dotsent; Axmedov R.M., i.f.n., dotsent; Sirojiddinov K.I., i.f.n., dotsent; Tojiboyev K.O., i.f.d., dotsent, Yoqubijonova X.Y. i.f.d., dotsent; Lutpidinov Sh.Z., i.f.d., dotsent; Murodxo'jayeva F.M., i.f.f.d., dotsent; Xudayberdiyeva N.N. i.f.d., dotsent; Abdullayev Z.S. i.f.f.d., dotsent; G'aniyev G'.A. dotsent; Odilov H.M. i.f.f.d; katta o'qituvchi, Asqarov A.X., o'qituvchi Asqaraliyev S.R.; Irisboyev Sh.Turg'unov A.M. (texnik kotib)

"**Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari**". Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2026-yil 2-3-iyun - Namangan: NamDU, 2026).

To'plamda Namangan davlat universitetida 2026-yilning 2-3-iyun kunlari bo'lib o'tadigan "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etiladi. Anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son Qarori hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan anjumanlar ro'yxatiga asosan tashkil etiladi.

Ma'ruza mavzulari milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni qisqartirish, diversifikatsiya, klasterlashuv, ixtisoslashuv, "yashil iqtisodiyot", ekologik barqarorlik, inklyuziv o'sish, investitsiya va innovatsiya siyosati, texnologik modernizatsiya, raqamli transformatsiya, infratuzilma va transport-logistika zanjirlari, energetika, suv ta'minoti, kommunikatsiya, tadbirkorlik va sanoat kooperatsiyasi, kichik biznes, agrobiznes, sanoat zonalari, mahalliylashtirish, hududiy boshqaruv samaradorligi, budjet mustaqilligi, davlat-xususiy sheriklik, KPI va monitoring, mehnat bozori, inson kapitali hamda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi.

To'plamdan o'rin olgan maqolalardagi ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

© Namangan davlat universiteti, 2026
© Iqtisodiyot fakulteti, 2026

2. Danes, S. M., & Haberman, H. R. (2007). Teen financial knowledge, self-efficacy, and behavior: A gendered view. Financial Counseling and Planning, 18(2), 48-60.
3. Fernandes, D., Lynch, J. G., & Netemeyer, R. G. (2014). Financial literacy, financial education, and downstream financial behaviors. Management Science, 60(8), 1861-1883.
4. Mandell, L., & Klein, L. S. (2009). The impact of financial literacy education on subsequent financial behavior. Journal of Financial Counseling and Planning, 20(1), 15-24.
5. Robb, C. A. (2011). Financial knowledge and credit card behavior of college students. Journal of Family and Economic Issues, 32(4), 690-698.
6. Westminster International University in Tashkent. (2023). Annual report on student support services and financial literacy program outcomes 2022-2023. WIUT Internal Publication.
7. World Bank. (2024). Global Financial Inclusion Database (Findex). https://databank.worldbank.org/source/financial-inclusion

UDK 657:631.162

BUXGALTERIYA HISOBIDA MAHSULDOR VA ISHCHI HAYVONLAR HISOBINI YURITISH MUAMMOLARI

Ravshanov Alisher Bobaqulovich
Qarshi davlat texnika universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0002-5204-2467
alisherravshanov0571@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarida qoramollarni tasniflanishi, baholanishi, ularni hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha mavjud muammolar yoritilgan, mahsuldor va ishchi hayvonlarning ta’rifi ishlab chiqilgan. 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” standartining mohiyati va asosiy qoidalari keltirilgan. Maqolada qoramollarni tan olish, boshlang‘ich va adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash, qoramollar va ulardan olingan mahsulotlarning haqqoniy qiymatini o‘zgarishidan olinadigan foyda yoki ko‘rilgan zararni hisobga olish tartibi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qoramollar, mahsuldor hayvonlar, ishchi hayvonlar, biologik aktivlar, biotransformatsiya, kapital qo‘yilmalari, boshlang‘ich qiymat, davomiy baholash, haqqoniy qiymat.

Qishloq xo‘jaligida chorvachilik sohasi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri hisobga olish va samarali boshqarish tarmoq rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chorva mollarning soni, haqqoniy qiymati, mahsuldorligi va ularning tarkibi haqida aniq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish qishloq xo‘jalik korxonalari va investorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, shundan 7 614 tasi qoramolchilik, 3 263 tasi qo‘y va echkichilik, 142 tasi yilqichilik, 52 tasi tuyachilik, 1 163 tasi parrandachilik, 4 829 tasi baliqchilik, 715 tasi asalarichilik va 254 tasi quyonchilik yo‘nalishida tashkil etilgan[1].

Dunyoda aholisi sonining keskin oshib borishi, ekin maydonlarining qisqarishi va shurlanishi, ekologik iqlimning o‘zgarishi va davlatlar o‘rtasida siyosiy keskinlikni kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, charvochilik mahsulotlarini ishlab chiqishda moddiy resurslarning etishmasligi va sohaga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishdagi moliyaviy qiyinchiliklar bu muammolarni echim topishiga tusqinlik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son farmonining 1-ilovasida qishloq xo‘jaligida - 4,8 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini hozirgi 40 milliarddan 2030-yilgacha 60 milliard dollarga etkazish bo‘yicha islohotlarni boshlash.

Qishloq xo‘jaligi uchun 52 trillion so‘m ajratib, dehqon va fermer xo‘jaliklari, sohadagi klasterlarni qo‘llab-quvvatlash[2] qishloq xo‘jaligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustivor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Keyingi yillardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligini jumladan, chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish to’g’risidagi farmonlar, xalqimizni arzon va sifatli go‘sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirishda chorvaning ozuqa bazasini ko‘paytirish, naslchilikni yaxshilash, sun’iy urug‘lantirishni rivojlantirish va naslchilik xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Buxgalteriya hisobi amaliyotda chorva mollarini hisobga olish jarayonlarining etarlicha raqamlashtirilmagani, ularni hisobga olish va baholashda inson omilining yuqori ustunligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi ushbu muammolar qatoriga kiradi. Bu esa o‘z navbatida ma’lumotlarning noaniqligiga, rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda xatolarga hamda iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Shu bois, mazkur mavzuda chorva mollarni hisobga olish tizimidagi mavjud muammolarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash hamda samarali echimlar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mahsuldor va ishchi hayvonlar moliyaviy hisobotda biologik aktivlarning tarkibiy qismi sifatida hisobga olinib, ularni to‘g‘ri tasniflash va ma’lumotlarni ochib berish moliyaviy hisobotning sifatini va ishonchligini yanada oshiradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq, biologik aktivlar va asosiy vositalar iqtisodiy tabiati jihatidan sezilarli darajada farq qiladi.

Biologik aktivlar - bu doimiy biologik transformatsiyaga uchragan tirik organizmlar, asosiy vositalar esa ishlab chiqarishda ishlatiladigan tirik bo‘lmagan resurslardir. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, biologik aktivlar odatda bozor sharoitlari va o‘zida biologik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi haqqoniy qiymat bo‘yicha o‘lchanadi. Asosiy vositalar esa

aksincha, tarixiy qiymat bo‘yicha qayd etiladi va foydali muddati davomida amortizasiya qilinadi.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar asosan quyidagicha tasniflanadi:

Foyda keltirish muddatiga ko‘ra:

1. Uzoq muddatli foyda keltiradigan qoramollar:

- mahsuldor qoramollar;
- ishchi qoramollar.

2. Qisqa muddatli foyda keltiradigan:

- o‘stirishdagi qoramollar;
- boquvdagi qoramollar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida qoramollar asosan qo‘yidagicha tasniflanadi:

1. Foyda keltirish muddatiga ko‘ra:

1. Uzoq muddatli foyda keltiradigan qoramollar:

- mahsuldor qoramollar;
- ishchi qoramollar.

2. Qisqa muddatli foyda keltiradigan:

- o‘stirishdagi qoramollar;
- boquvdagi qoramollar;
- yig‘ishtirib olish jarayonidagi biologik mahsulotlar (sut, gusht va b.).

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida qoramollar va ulardan yig‘ishtirib olish jaryonidagi mahsulotlarni guruhlash jadvali keltirilgan (1-jadval). Bu standartlarning asosiy muhim jihati mahsuldor hayvonlar va ulardan olinadigan biologik mahsulotlar alohida hisoblanadi.

1-jadval

Qoramollarni xo‘jalikdagi iqtisodiy maqsadlariga ko‘ra tasniflanishi

№	Qoramol turi	Maqsadi	Tasnif	Qo‘llanila-digan standart	Baholash usuli
1	Go‘sht uchun boqiladigan qoramollar	Sotish, so‘yish	Biologik aktiv	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari
2	Sut uchun boqiladigan qoramollari	Sut ishlab chiqarish	Ishlab chiqaruvchi biologik aktiv	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari
3	Nasldor buqalar	Urug‘ olish, ko‘paytirish	Ishlab chiqaruvchi biologik aktiv	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari
4	Yosh mollar	Keyinchalik	Biologik	IAS 41	Haqqoniy qiymat -

	(buzoqlar)	sotish yoki podaga qo‘shish	aktiv		sotish xarajatlari
5	Sut (olingan mahsulot)	Sotish, qayta ishlash	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	IAS 41 va IAS 2	Hosil olingan paytda haqqoniy qiymat
6.	Sotish uchun muljallangan qoramollar	Sotish	Biologik aktiv	IAS 41 va IFRS 5	Balans qiymati - sotish xarajatlari = haqqoniy qiymati o‘rtasidagi kamrog‘ida
7	Ishchi qoramollar	Yer haydash va yuk tortish uchun	Asosiy vosita	IAS 41 va IAS 16	Boshlang‘ich qiymat (tannarx),- amortizatsiya

Izoh: Muallif ishlanmasi

AQSh iqtisodchi olimi Dj. U.Kendrikning fikricha, mahsuldor hayvonlar - qishloq xo‘jaligida iqtisodiy qiymat yaratuvchi, ya’ni go‘sht, sut, tuxum, jun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan tirik aktivlar hisoblanadi[3].

Iqtisodchi olim K.Ritsonning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar - fermer xo‘jaligida daromad keltiruvchi asosiy biologik resurs bo‘lib, ularning samaradorligi chiqarilgan mahsulot hajmi bilan baholanadi[4].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim A.A.Abdullaevning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar - qishloq xo‘jaligi korxonalarida iqtisodiy samara beruvchi, qayta ishlanadigan va bozorda sotiladigan mahsulotlar manbai bo‘lgan tirik vositalardir.

Ishchi hayvonlar - qishloq xo‘jaligida transport, erga ishlov berish va boshqa og‘ir ishlar uchun foydalaniladigan, iqtisodiy samara keltiruvchi tirik mehnat vositalari hisoblanadi[5].

N.Q.Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar - inson tomonidan parvarish qilinib, ulardan muntazam ravishda mahsulot olishga mo‘ljallangan chorva turlaridir.

Ishchi hayvonlar - inson tomonidan parvarish qilinib, asosan mehnat funksiyasini bajarishga ixtisoslashgan chorva turlaridir[6].

Iqtisodchi V.I.Nazarenkoning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar - agrar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi va qo‘shimcha qiymat yaratishga xizmat qiluvchi biologik aktivlar hisoblanadi.

Ishchi hayvonlar - agrar ishlab chiqarishda mehnat vositasi sifatida ishtirok etuvchi, mexanik energiya manbai bo‘lgan biologik aktivlardir[7].

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti maxsus agentligining qayd etishicha, ishchi hayvonlar - qishloq xo‘jaligida er haydash, yuk tashish, sug‘orish va boshqa ishlarda quvvat manbai sifatida foydalaniladigan hayvonlardir. Ular ishlab chiqarish jarayonida energiya manbai bo‘lib xizmat qiladi[8].

Yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mahsuldor hayvonlarga berilgan ta’riflarda asosiy urg‘u ularni qiymat yaratishiga, mahsulot berishiga qaratilgan. Xuddi shuningdek, ishchi hayvonlarga berilgan ta’riflarda asosiy urg‘u ularning ishlov berish va mehnat funksiyasini bajarishga ixtisoslashganligiga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha bu ta’riflar mahsuldor va ishchi hayvonlarning biologik aktiv sifatidagi mazmun-mohiyatini to‘liq yoritib bera olmaydi.

Bizning fikrimizcha, mahsuldor hayvonlar - xo‘jalik yurituvchi sub’ektda bir yildan ortiq muddatda mahsulot olish maqsadida parvarish qilinadigan biologik aktivlardir.

Ishchi hayvonlar - xo‘jalik yurituvchi sub’ektda bir yildan ortiq muddatda mehnat vositasi sifatida foydalaniladigag biologik aktivlardir.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar aktiv sifatida tan olinganda, ular boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanadi va hisobga olinadi.

Chorva qoramollari aktiv sifatida tan olinganidan so‘ng, boshlang‘ich yoki qayta baholangan qiymati bo‘yicha hisobga olinishi lozim. Qoramollarni qiymatini hisobga olishning qo‘llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. [9].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga (IAS 41) ko‘ra qoramollar dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanishi lozim. Bozor narxlari mavjud bo‘lmagan yoki haqqoniy qiymatning muqobil baholashlari aniq ishonchsiz deb topilgan holatda, biologik aktiv jamg‘arilgan eskirish va jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zararlar chegirib tashlangandagi tannarxda baholanishi lozim[10].

Qishloq xo‘jaligida qoramollarning IFRS va Milliy standartlar bo‘yicha baholanishi va ular o‘rtasidagi asosiy farqlarni 2-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Qishloq xo‘jaligida qoramollarning IFRS va Milliy standartlar bo‘yicha baholanishi

№	Ob’ekt	Xalqaro standart (IFRS)	IFRS bo‘yicha baholash	Milliy standart (BHMS)	Milliy standart bo‘yicha baholash	Asosiy farq
1	Go‘sht uchun boqiladi-gan qoramollar	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari	BHMS №4	Tannarx yoki bozor qiymati (kamrog‘i)	IFRS doim haqqoniy qiymat, milliyda tannarx va bozor bahosining kamida
2	Sut sigirlari	IAS 41	Haqqoniy qiymat -	BHMS №5	Tannarx - amortizatsiy	IFRS doim haqqoniy

			sotish xarajatlari		a	qiymat, milliyda boshlang‘ich qiymat
3	Nasldor buqalar	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari	BHMS №5	Tannarx - amortizatsiya	IFRS doim haqqoniy qiymat, milliyda boshlang‘ich qiymat
4	Yosh mollar (buzoqlar)	IAS 41	Haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari	BHMS №4	Tannarx yoki sof sotish qiymati	IFRS doim haqqoniy qiymat, milliyda tannarx va bozor bahosining kamida
5	Sut (mahsulot)	IAS 41	Cog‘im paytida haqqoniy qiymat	BHMS №4	Tannarx (ishlab chiqarish xarajatlari)	IFRS doim haqqoniy qiymat, milliyda tannarx
6	Sotish uchun muljallan-gan qoramollar	IFRS 5	Balans qiymati yoki haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari (kamrog‘i)	BHMS №5	Tannarx yoki bozor qiymati (kamrog‘i)	IFRS haqqoniy qiymat - sotish xarajatlari (kamrog‘i) milliyda boshlang‘ich qiymat
7	Ishchi qoramollar	IAS 41 va IAS 16	Tannarx,- amortizatsiya - qadrsizlanish	BHMS №5	Tannarx - amortizatsiya	IFRSda qayta baholash imkoniyati bor

Izoh: Muallif ishlanmasi

Bundan tashqari, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida chorvachilik xo‘jaliklarida o‘stirishdagi va boquvdagi mollar quyidagicha baholanadi:

- sut yo‘nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar reja tannarxida baholanadi;

- go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar tirik vaznini tirik vaznning reja tannarxiga ko‘paytirilib baholanadi;

- ishchi hayvonlardan olingan nasl ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib olib baholanadi;

- chetdan sotib olingan o‘stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, barcha sotib olish va tashib keltirishga ketgan xarajatlar qo‘shib baholanadi;

- asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo‘yilgan mollar balans bahosida baholanadi;

- asosiy podaga o‘tkazilgan yosh mollar haqiqiy tannarxida baholanadi[11].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga (IAS 41) ko‘ra qoramollar dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanishi lozim. Bu moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirish bilan bir vaqtda, xo‘jalik boshqaruvi va investorlari uchun samarali qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydi.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar aktiv sifatida tan olinganda boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanib, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotida hisobga olinadi. Qoramollarni tashkil qilish (shakllantirish) bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotida amalga oshiriladi. Qoramollarni boshlang‘ich bahosini aniqlab, balansga kirim qilinishiga 0840 -“Asosiy podani tashkil qilish” schyoti kreditlanib, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Qoramollarni xo‘jalik balansidan chiqarilishi 9210-“Asosiy vositalarning chiqib ketishi” schyotini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotini milliy buxgalteriya hisobi standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish maqsadida “Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari” deb qayta nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga ko‘ra qoramollar dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanib, “Uzoq muddatli biologik aktivlar” sifatida hisobga olinadi. Amaldagi milliy standartda (21-BHMS) biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning belgilanmaganligini hisobga olib, biz mazkur standartda nazarda tutilgan 0700-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar” qayta nomlab 0700-“Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb o‘zgartirishni, 0700-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar” esa 0135-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalar” schyotini ochishni taklif qilamiz.

Xuddi shuningdek, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotini “Investision mulk” deb, 0180-“ Ko‘p yillik o‘simliklar” schyotini “Mevali daraxtlar” deb qayta nomlashni taklif qilamiz.

Mazkur 0700-schyot tarkibida 0710-“Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”, 0720- “Uzoq muddatli biologik aktivlar (o‘simliklar)”, 0730-“Sotish uchun muljallangan biologik aktivlar” schyotlarni ochishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xo‘jalikning o‘zida etishtirilgan yoki sotib olingan qoramollarni dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanib, xo‘jalik balansiga kirim qilinishiga qabul qilish dalolatnomasiga asosan quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 0710 - “Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”,

Kredit 0840-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari”.

Balansga qabul qilingan biologik aktivning tannarxi va haqqoniy qiymati o‘rtasidagi salbiy farq summasiga:

Debet 9430 -“ Boshqa operatsion xarajatlar”,

Kredit 0840-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari”.

Balansga qabul qilingan biologik aktivning tannarxi va haqqoniy qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq summasiga:

Debet 0710 - “Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”,

Kredit 9390-“Boshqa operatsion daromadlar” buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi.

Bizningcha yuqorida bildirilgan takliflar va qayta nomlashlar milliy buxgalteriya hisobi standartlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, buxgalteriya hisobining ma’lumot berish, nazorat va tahlil qilish, rejalashtirish va hisobot funksiyalarini to‘laqonli bajarilishiga xizmat qiladi.

Mahsuldor va ishchi hayvonlarni va ulardan olinadigan chorvachilik mahsulotlarini to‘g‘ri hisobga olish qishloq xo‘jaligi sohasida aniq va shaffof moliyaviy hisobotlarni ta’minlash uchun juda muhimdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, IFRS, xususan, 41-IAS va 36-IAS qo‘llanilishi qoramollarni tasniflash va baholash uchun izchil asos yaratadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qoramollarni to‘g‘ri tasniflash va baholash moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi va sub’ektlar o‘rtasida taqqoslashni kuchaytiradi. Biroq, hisobga olish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro amaliyotlar bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan dastur” qaroriga 1-ILOVA. https://lex.uz/uz/docs/5858728.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787.
3. Kendrick J.W. Productivity Trends in the United States, Princeton University Press, 1961. file:///C:/Users/Acer/Downloads/Productivity_trends_in_the_ United_States.pdf.
4. Ritson C. Agricultural Economics: Principles and Policy, CAB International, 2002.
5. Abdullaev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, Toshkent, 2010.
6. Yo‘ldoshev N.Q. Agrar iqtisodiyot asoslari, Toshkent, 2015.
7. Назаренко В.И. Экономика селского хозяйства, Москва, 2008.

8. FAO, Livestock and draught animal power studies. https://www.fao.org/fileadmin/user_upload/ags/publications/draugth_ap_overview.pdf.
9. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar». https://lex.uz/docs/7058293.
10. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 41-Qishloq xo‘jaligi. https://nrm.uz/contentf?doc=708861_(ias)_41_qishloq_ho%E2%80%98jaligi_buhgalteriya_hisobining_halqaro_standarti_(av_tomonidan_09_12_2022_y_3400-son_bilan_ro%E2%80%98yhatga_olingan_moliya_vazirining_10_11_2022_y_61-son_buyrug%E2%80%98iga_26-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana.
11. K.B.Urazov, S.V.Vaxidov. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik, 2010 - 445 b.

UDK 336.77:631

DEVELOPMENT OF MECHANISMS FOR FINANCING AGRICULTURAL PRODUCTION IN MODERN CONDITIONS

Kamiljanov Berdax
PhD student of Karakalpak State University
named after Berdakh

Annotation. The article analyzes mechanisms for financing agricultural production in Uzbekistan, evaluates financial resources, credit systems, investment processes, and identifies key challenges and prospects for improving sustainable agricultural development under modern economic conditions.

Keywords. Agricultural financing, credit mechanisms, investments, agrarian sector, Uzbekistan.

Agriculture in the Republic of Uzbekistan is one of the strategic sectors of the economy, contributing a significant share to the country’s gross domestic product and providing a large proportion of employment for the population. In recent years, reforms implemented in the agrarian sector have contributed to increasing production volumes, expanding export potential, and strengthening food security. At the same time, the system of agricultural financing has not yet been fully developed, and there remains a need to improve the efficient use of existing financial resources, enhance credit mechanisms, and introduce new financial instruments.

The specific features of agricultural production such as seasonality, high natural risks, slow capital turnover, and uneven income generation make its financing more complex compared to other sectors. Although production costs are incurred throughout the year, revenues are mainly generated after the harvest is completed. This creates a constant need for working capital among agricultural entities and makes them dependent on external sources of financing. Therefore, the effective organization of the financial and credit mechanism is of crucial importance for ensuring the stability of agricultural production.

Talapova Nargiza Baxriddinovna 349
Gulshat Karlibaeva, Sayid Akhror Juraev 355
Burkhanov Fakhriddin Abdumalikovich 359
Sattarova Gulnoza Xabibullayevna, Azamatova Farzona Azizjon qizi 363
Gulshat Karlibaeva, Shamuratov Anvar Abdirasul o‘g‘li, ... 367
Рахмонов Джамшид Одил угли 371
Evatov Elomon O‘tkir o‘g‘li 376
Gulshat Karlibaeva, Sa’dullayev Shaxzodbek Ibodullo o’g’li 381
Ravshanov Alisher Bobaqulovich 388
Kamiljanov Berdax 396
Anvarjonov Jamshidbek 399
Kamronbek Raxmatov Xasan o‘g‘li 407
Noralov Sherzod Mukhamatali Ugli 410
Xasanova Naimaxon Akmal qizi 413
Yo’ldasheva Maxfuza Maxammad qizi 415
Ashirov Alisher, Hikmatullayev Abbosjon Kamoljon o‘g‘li, Abduzoirov Sarvarbek Sanjar o‘g‘li 420
Usmanova Gulida Valiyevna 426
Maftuna Ashurova Ortiqovna 430
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich 435
F.U.Umarov 440
Sultonboyev Umidjon Xoshimjon o’g’li 447
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich, Abdug’opporov G’olibjon Abdug’ofur o’g’li 451
Sharobiddinov G’olibjon Shaxobiddin o’g’li 457
Xolmatova Nodiraxon Quddusovna, Mahmudov Farrux Rustamjon o’g’li 461
Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich, Olimjonov Jamshidbek Javlonbek o’g’li 466
Talapova Nargiza Baxriddinovna 471
Жолдасбаева Улдаулет Жаксыбай кызы 476
Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich 483
Bodirova Nafisa Maxmudovna 493
Soliyev Saidmirzo Mirtazoxon o’g’li 497
Lapasov Nurali Abduraxmon o’g’li 503
Feruza Rahmonberdiyeva 511
Madumarov Xusniddin Komilovich 514
To‘ychiyev Nodir Erkin o‘g‘li 518
Ataxanov Umidbek Olimovich 530
Yunusova Sohiba Abdulmsmidovna 535